

**Ekspertizadan o'tkazish to'g'risidagi  
42-E sonli SHARTNOMA**

**Toshkent sh.**

**19.01.2022 y.**

O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi huzuridagi «Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi» Davlat unitar korxonasi (keyingi o'rinlarda «Bajaruvchi» deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi bosh direktor M.Inoyatov bir tomondan va «O'zbekgidroenergo» AJ «4-son qurilish direksiyasi» MCHJ (keyingi o'rinlar «Buyurtmachi» deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi direktor T. Sharipov, ikkinchi tomondan, birgalikda «Tomonlar», quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

**I. SHARTNOMA PREDMETI**

1.1. Mazkur shartnomaga muvofiq, Buyurtmachining topshirig'i bo'yicha: «**Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani Pskom GES qurilishi. (1-bosqich. Suv tashlovchi inshoot I yarusi)**» obyekti loyiha-smeta hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish bo'yicha xizmat ko'rsatish majburiyatini oladi, Buyurtmachi, o'z navbatida, ekspertizadan o'tkazish ishlari uchun to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

1.2. Ekspertizani o'tkazish muddati mazkur shartnomaning 2.2-bandiga muvofiq Buyurtmachi tomondan oldindan pul mablag'lari o'tkazilgandan so'ng 30 ish kuni, agar Buyurtmachiga hujjatlarni taqdim etish bo'yicha (kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risida) xat yuborilgan bo'lsa, ishlarni bajarish muddati Bajaruvchining xatida belgilangan davrga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

1.3. Ekspertizadan o'tkazishga Buyurtmachining 18.01.2022 yildagi 01-06/31-sonli murojaati asos hisoblanadi.

1.4. Ekspertizadan o'tkazish ishlarining yakuniy natijasi ekspert xulosasi hisoblanadi.

1.5. Bajaruvchi mustaqil ravishda hamda uchinchi shaxslarni jalb etish bilan Buyurtmachi manfaatlarini ko'zlab ishlarni bajaradi.

**II. SHARTNOMA BAHOSI VA O'ZARO HISOB-KITOB TARTIBI**

2.1. Loyiha smeta hujjatlarini ekspertizadan o'tkazishning shartnomaviy narxlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17 sentabrdagi 579-son qarorining 6-ilovasiga muvofiq belgilanadi.

Shartnoma qiymatining hisob-kitobi:

$$251\ 865\ 553\ 555 \times 0,1\% = 251\ 865\ 553 + 15\% \text{ QQS}$$

**Jami to'lovga: 289 645 385,95 (Ikki yuz sakson to'qqiz million olti yuz qirq besh ming uch yuz sakson besh) so'm 95 tiyin, shu jumladan QQS 15% 37 779 832,95 (O'ttiz yetti millon yetti yuz yetmish to'qqiz ming sakkiz yuz o'ttiz ikki) so'm 95 tiyin.**

2.2. Buyurtmachi Bajaruvchiga shartnoma imzolangandan so'ng 10 (o'n) kun ichida shartnoma umumiy qiymatining 100 % miqdorini oldindan to'lovni amalga oshiradi.

2.3. Ekspertizadan o'tkazish ishlari bajarilib, o'zaro to'liq hisob-kitob qilingandan so'ng, Bajaruvchi aybdor bo'lmagan taqdirda mazkur shartnoma predmeti bo'yicha takroran ekspertizaga taqdim etilsa, takroriy ekspertizadan o'tkazish uchun xaq to'lash yangi shartnoma tuzish orqali amalga oshiriladi.

2.4. Shartnoma majburiyatlari bekor qilinganda, shartnomaviy hujjatlar (bajaruvchining nusxalari) hamda qayta ishlashga va takomillashtirishga qaytarilgan loyiha materiallari taqdim etilmaganda, bajarilgan ish hajmidan qat'iy nazar to'langan mablag'lar qaytarilmaydi.

**III. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI**

3.1. Bajaruvchi taqdim etilgan loyiha xujjatlarini O'zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy xujjatlariga muvofiq ekspertizadan o'tkazish majburiyatini oladi;

3.2. Buyurtmachi mazkur shartnoma yuzasidan quyidagi majburiyatlarni oladi:

a) Bajaruvchiga ekspertizadan o'tkazish uchun zaruriy tegishli hujjatlarni o'z vaqtida to'liq taqdim etish;

b) ekspertizadan o'tkazish xizmati haqini o'z muddatida shartnomaning 2.2-bandiga muvofiq to'lovni amalga oshirish;

v) ekspertiza xulosasini olish bilan birgalikda ekspertizadan o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlarni qabul qilib olish. Hujjatlar olib ketilmagan taqdirda Bajaruvchi ularning saqlanishi uchun javob bermaydi.

**IV. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI, NIZOLARNI XAL QILISH TARTIBI**

4.1. Buyurtmachi Bajaruvchiga bajarilgan ishlar uchun to'lovning kechiktirilgan har bir kuni uchun shartnoma bahosining 0,4% miqdorida penya to'laydi, biroq penyaning umumiy miqdori shartnoma bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

4.2. Bajaruvchi Buyurtmachiga ekspertizadan o'tkazish ishlarini bajarmaganda yoki o'z vaqtida bajarmaganda kechiktirilgan har bir kun uchun shartnoma bahosining 0,5 % miqdorida penya to'laydi, biroq penyaning umumiy miqdori shartnoma bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

4.3. Tomonlarning mazkur shartnomada nazarda tutilmagan javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

4.4. Mazkur shartnomaning bajarilishi yuzasidan tomonlar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar va kelishmovchilik muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.

4.5. Nizolarni muzokoralar yo'li bilan hal etishning imkoni bo'lmagan taqdirda, kelishmovchiliklarni bartaraf etish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq o'rnatilgan tartibda Toshkent shahar tumanlararo iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

## V. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHGA DOIR MAJBURIY SHARTLAR

5.1. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar:

korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga zid bo'lgan har qanday xatti-harakatlarini amalga oshirmaslik;

shu jumladan pora taklif qilmasligi, va'da bermasligi, tovlamachilik qilmasligi, to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita pora olishiga, ya'ni moddiy boyliklar yoki mulkiy imtiyozlarni olishga rozilik bermasligi, pora beruvchining manfaatlari yo'lida «Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi» DUK xodimi o'z lavozimidan foydalangan holda amalga oshirishi yoki amalga oshirishi mumkin bo'lgan muayyan xarakterlarni bajarmasligi shart.

Tomonlar ushbu xarakterlarning oldini olish uchun choralar ko'rilishini kafolatlaydilar.

5.2. Agar tomonlar shartnoma shartlarining buzilishiga duch kelsa, shuningdek, «Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi» DUK xodimlarining ushbu shartnomaga va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid bo'lgan xatti-xarakterlari, shu jumladan korruptsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir etilganligi haqida quyidagi aloqa kanallariga murojaat qilish mumkin:

«Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi» DUK ishonchli telefonlari 71 210 11 04, 71 244 10 47.

## VI. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH YOKI BEKOR QILISH TARTIBI

6.1. Ushbu shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish ular yozma ravis' rasmiylashtirilgan va taraflarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan taqdirda xaqiqiy hisoblanadi.

6.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga taraflarning kelishuviga muvofiq yoki O'zbekiston Respublikasini amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra, yetkazilgan zarar qoplangan holda yo'l qo'yiladi.

6.3. Shartnomani bekor qilish haqida qarorga kelgan taraf ikkinchi tarafga 3 kun oldin yozma bildirishnoma yuborishi shart.

## VII. FORS-MAJOR

7.1. Taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'lmagan holatlar (yengib bo'lmaz kuch) oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun taraflarning birortasi ikkinchi taraf oldida javobgar emasdir. Fors-major holatlari deb quyidagilar hisoblanadi:

- tabiiy ofatlar, yong'in, epidemiya, avariya hamda boshqa omillar va holatlar, bunday holda majburiyatlarni bajarish muddatlari fors-major holatining davom etish muddatiga mutanosib tarzda uzaytiriladi.

7.2. Ikkala taraf mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishga to'sqinlik qiluvchi fors-major holatlarining boshlanganligi va tugaganligi to'g'risida bir-birlarini zudlik bilan xabardor qilishlari lozim.

7.3. Fors-major holatlarini vaj qilib keltirayotgan taraf ularning tasdig'i sifatida vakolatli davlat organining tegishli hujjatini taqdim etishi shart.

## VIII. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

8.1. Mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va tomonlar o'z majburiyatlarini to'liq bajargunlariga qadar amal qiladi

8.2. Shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, bir xil yuridik kuchga ega va taraflarga bir nusxadan beriladi.

### Tomonlarning manzillari va rekvizitlari:

#### Bajaruvchi:

O'zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirligi  
huzuridagi "Shaharsozlik hujjatlari  
ekspertizasi" DUK

#### Buyurtmachi:

«O'zbekgidroenergo» AJ «4-son qurilish  
direksiyasi» MCHJ

Manzil: 100012, Toshkent sh., Abay ko'ch., 6-uy

H/R: 2020-8000-2008-8257-3001

STIR: 305-550-214 IFUT: 71120

Bank: "Turon bank" bosh ofisi

MFO: 00446

Telefon: 244-04-85, 244-11-26

Bosh direktor

M. Inoyatov

Yurist

Manzil:

H/R: «4-SON QURILISH DIREKSIYASI» MCHJ

STIR: 305071842 Шайхонтохур тум., Навоий 22-уй.

Bank: Тел: +(998 93) 180-08-63, +(998) 71 230 26 15

Bank kodi: 2020 8000 4008 0260 2001

Telefon: Toshkent sh. «ТУРОН» АТ банкнинг Бош офиси

MFO: 00446 ИНН: 305 071 842 ОКЭД: 71120

Direktor

T. Sharipov

Yurist

**DALOLATNOMA**  
**19.01.2022 yildagi 42-E sonli shartnomaga asosan**  
**bajarilgan ishlarni topshirish - qabul qilish bo'yicha**  
**« 19 » 01 2022 y.**

Biz, quyida imzo chekuvchilar, Qurilish Vazirligi huzuridagi "Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi" DUK Nizomi asosida faoliyat yurituvchi Bosh direktor M.Inoyatov va Buyurtmachining vakili Nizom asosida faoliyat yurituvchi «O'zbekgidroenergo» AJ «4-son qurilish direksiyasi» MCHJ direktori - T.Sharipov, «Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani Pskom GES qurilishi 1-bosqich Suv tashlovchi inshoot I yarusi» obyekti loyiha-smeta hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish to'g'risidagi 19.01.2022 yildagi 42-E sonli shartnomaga asosan ekspert xulosasi Buyurtmachiga elektron shaklida berilgani haqida tuzdilar.

Buyurtmachi ekspert xulosasini qabul qildi va xulosaning sifati va to'liqligi bo'yicha bajaruvchiga e'tirozlari mavjud emas.

289 645 385,95 (Ikki yuz sakson to'qqiz million olti yuz qirq besh ming uch yuz sakson besh) so'm 95 tiyin, shu jumladan QQS 15% 37 779 832,95 (O'ttiz yetti millon yetti yuz yetmish to'qqiz ming sakkiz yuz o'ttiz ikki) so'm 95 tiyin.

**Topshirdi Bajaruvchi:**

O'zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirligi  
huzuridagi "Shaharsozlik hujjatlari  
ekspertizasi" DUK

**Manzil:** 100012, Toshkent sh., Abay ko'ch., 6-uy  
**H/R:** 2020 8000 2008 8257 3001  
**STIR :** 305 550 214 **IFUT:** 71120  
**Bank:** "Turon bank" bosh ofisi  
**MFO:** 00446  
**Telefon:** 244-04-85, 244-11-26



Bosh direktor

M.Inoyatov

**Qabul qildi Buyurtmachi:**

«O'zbekgidroenergo» AJ «4-son qurilish  
direksiyasi» MCHJ

**Manzil:** 4-SON QURILISH DIREKSIYASI MCHJ  
**H/R:** Toshkent sh. Shайхонтохур тум. Navoiy 22-uy.  
**STIR:** Tel: +(998 93) 180-0000 **IFUT:** (998) 71 230 26 15  
**Bank:** X/p: 2020 8000 4008 0260 2001  
**Bank kodi:** Toshkent sh., «ТУРОН» АТ банкинг Бош офиси  
**Telefon:** MFO: 00446 ИНН: 305 071 842 ОКЭД: 71120



Direktor

T.Sharipov